



QADIMGI HIND TILSHUNOSLIGI

ADCHTI

Ingliz filologiyasi, o`qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti

Xitoy tili yo`nalishi 101-guruh talabasi

Xalimjanova Sug`diyona Anvarjon qizi

Ilmiy maslahatchi: Zaynobidinova.I

Tel: +998504053609

Annotatsiya: Qadimgi Hindiston jahon tilshunosligi tarixida tilshunoslik fanining markazi sifatida tan olinadi va umum tomonidan e`tirof etiladi. Chunki xuddi shu mamlakatda birinchi bo`lib kishilarning aloqa vositasi bo`lgan tilni o`rganishga qiziqish paydo bo`ldi. Ushbu maqolada hind tilshunosligining asosiy tushunchalari (vedalar, sanskrit, Panini grammatikasi) tahlil qilinadi.

Kalit so`zlar: *Veda, sanskrit, Panini grammatikasi, fonetika, prakrit, Yaski.*

Аннотация: Древняя Индия общепризнанно является центром лингвистики в истории мирового языкознания. Именно в этой стране впервые возник интерес к изучению языка, являющегося средством общения между людьми. В данной статье анализируются основные концепции индийского языкознания (Веды, санскрит, грамматика Панини).

Ключевые слова: *Веды, санскрит, грамматика Панини, фонетика, пракрит, яски.*

Abstract: Ancient India is recognized and generally recognized as the center of linguistics in the history of world linguistics. Because it was in this country that interest in studying language, which was a means of communication between people, first arose. This article analyzes the main concepts of Indian linguistics (Vedas, Sanskrit, Panini's grammar).

Keywords: *Veda, Sanskrit, Panini's grammar, phonetics, Prakrit, Yaski.*



Tarixdan barchamizga ma'lumki, har qanday fan kishilarning amaliy ehtiyojini qondirish zaruriyati tufayli dunyoga kelgan. Shu jumladan, Hindistonda ham tilni o'rganishga ham katta ehtiyoj paydo bo'ldi. Buning sababi vedalar deb nomlangan hind diniy qo'shiqlari qadimgi hind yozma tili bo'lgan sanskritda yozilgan bo'lib, davrlar o'tishi bilan prakrit deb nomlanuvchi hind jonli so'zlashuv tili undan ancha uzoqlasha boshladi. O'rtadagi farq ko'paygan sari sanskrit matnlarini sharhlash, izohlash ehtiyoji yuzaga keldi.¹

Boshqacha aytganda, qadimgi yozma yodgorliklar tili (yozma nutq) bilan so'zlashuv tili (jonli nutq) orasida ajralish, <<ziddiyat>> paydo bo'lgan. Ushbu ziddiyatlarni, farqlanishni yo'qotish uchun hind olimlari qadimiy yozma yodgorliklar tilini o'rganishga, ularni ommaviylashtirishga jiddiy kirishdilar.²

Olimlar ta'kidlashicha, hindlar vedalar asosida til faktlarini tekshirganlar. Natijada sanskrit deb atalgan til paydo bo'lgan. Shuning uchun hozirgacha hindlarning eng qadimgi tili sanskrit tili deb ataladi.

Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, Veda adabiyoti til masalalari 4 reja asosida o'rganiladi:

1. Shikshada. Tilning fonetikasi va orfoepiyasi
2. Chxandada. She'r o'lchovlari
3. Vyakoranada. Grammatika
4. Niruktada. Leksika va etimologiya

masalalari asosida qadimgi hind tilshunosligi taraqqiy qiladi.³

Kuzatishimiz natijasida hindlar qadimiy davrning eng buyuk fonetikachilari va grammatikachilari sifatida tanilganliklarini bilishimiz mumkin. Ular fonetika sohasida yunonlardan ham oldin unli va undosh tovushlarni farqlaganlar, portlovchi va sig'aluvchi, jarangli va jarangsiz tovushlarni, tovush birikmalari, bo'g'in, urg'u, intonatsiya, cho'ziqlik va qisqalik kabi fonetik hodisalarni, jarayonlarni bilganlar.

¹ Nurmanov Abdulhamid. Tanlangan asarlar 2-jild. 5-sahifa.

² Rasulov Ravshanxo'ja. Umumiy Tilshunoslik. Toshkent. 2010. 10-sahifa

³ O'rinboyev B, Musayev A. Umumiy Tilshunoslik. Toshkent. <<Oltin kitob>>. 2022. 14-sahifa



Ular otlarda 7ta kelishikmi qayd etganlar: 1)bosh kelishik, 2)qaratqich kelishigi, 3)jo`nalish kelishigi, 4)tushum kelishigi, 5)qurol kelishigi, 6)chiqish kelishigi, 7)o`rin kelishigi.

Qadimgi hindlar so`zlarni tahlil qilish, tarkibini o`rganish jarayonida ularni quyidagi bo`laklarga ajratganlar: 1) o`zak, 2) suffiks, 3) qo`shimcha . Shuningdek, so`z yasovchi va so`z o`zgartiruvchi morfemalar farqlangan.

Tilshunoslik asarlarida yozilishicha, hind tilshunoslari morfologiya bo`yicha ham qimmatli fikrlarni bayon qildilar. Hindlar 4 ta so`z turkumini ajratdilar:

- } Ism Ot
- } Fe'llar Ravish
- Old ko`makchi
- Yordamchilar

Hindlar qadimgi davrlardayoq fe'ning 4 ta maylini bilganlar:

- Aniqlik
- Istak
- Buyruq
- Shart

Fe'ning nisbatlarga ajratishgan.

- Aniq
- O`rta
- Majhullik

Hindlar sanskrit tilida fe'ning 3 ta shaxs va 3 ta son ko`rsatganlar.



- Birlik
- Juftlik
- Ko`plik

Ular fe'lining 3 zamonga birlashadigan 7 xil zamon formasini ajratganlar:⁴

- Hozirgi zamon
 - Otgan zamon tugallangan shakli
 - Tugallanmagan
 - Uzoq o'tgan zamon
 - Kelasi zamon
 - Odatdagi kelasi zamon
 - Shart fe'li

Qadimgi hindlarning eng mashhur tilshunosi Paninidir. U bizning eramizgacha bo'lgan IV asrda yashab ijod etdi. U klassik sanskritning eng mashhur grammatikasini yaratdi. Uning ushbu asari <<Ashtadxiyan>> nomi bilan ataladi. Panini grammatikasi to'rt mingga yaqin (3996 ta) qisqa va lo'nda she'riy usulda yozilgan, osonlik bilan esda qoladigan qoidalarni o'z ichiga oladi.

Panining sakkiz bo'limdan iborat klassik Sanskrit masalalariga oid grammatikasi Hindistonda deyarli 2000 ming yil davomida eng asosiy va eng muhim qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

Yana bir mashhur hind tilshunosi- Yaski (Yaska-V asr). Tilshunos vedalar tilini keng izohlab, tushuntirib beruvchi asar yaratadi va bunda o'zigacha bo'lgan tadqiqotchilar ishlarini umumlashtiradi.⁵

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, hind tilshunosligi g'oyalari turli mamlakatlarga tarqalgan va tilshunoslik fanining shakllanishi hamda ravnaq topishiga zamin yaratgan. Bu qadimgi Hindiston jahon tilshunoslik fanining beshigi

⁴ Rasulov Ravshanxo'ja. Umumiy Tilshunoslik. Toshkent. 2013. 11-12-sahifa

⁵ Rasulov Ravshanxo'ja. Umumiy Tilshunoslik. Toshkent. 2009. 13-14-sahifa.



, degan xulosa chiqarishga to'la huquq beradi. Albatta, bu g'oyalar yagona emas, bu haqida buyuk Yevropa tilshunosi V. Tomsen ham fikr bildirgan. << Yevropa tilshunosligi to XIX asrgacha qadimgi hind tilshunosligi darajasigacha ko'tarila olmagan edi>>.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- Nurmanov Abdulhamid. Tanlangan asarlar 2-jild. 5-sahifa
Rasulov Ravshanxo'ja. Umumiy Tilshunoslik. Toshkent. 2010. 10-sahifa
O'rinboyev B, Musayev A. Umumiy Tilshunoslik. Toshkent. <<Oltin kitob>>. 2022. 14-sahifa
Rasulov Ravshanxo'ja. Umumiy Tilshunoslik. Toshkent. 2013. 11-12-sahifa
Rasulov Ravshanxo'ja. Umumiy Tilshunoslik. Toshkent. 2009. 13-14-sahifa